XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-021-10-148-K/24 Angren shahar

Angren shahrining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari hamda 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori hamda Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunning 6,24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining mazkur qaroriga muvofiq, Angren shahar mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **133,7 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **133,7 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Angren shahar mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **663,1 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda shahar mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek, Angren shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **2 158 994 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari

shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar :

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **4-ilova**ga muvofiq;

- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **5-ilova**ga muvofiq;

-qishloq-xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

- YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin;

- Angren shahar mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **663,1 mln.so‘m** etib **11-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Yuldashev), shahar soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Shahar mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va

o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Abrarov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  RAYIMOV ALISHER ABDUMALIKOVICH

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Angren shahri
	JAMI	**133 701 340**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	17 095 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	8 896 920
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 151 000
	Aksiz solig‘i jami	25 256 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*25 256 000*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 314 400
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 125 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 227 020
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 583 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 188 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 180 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	1 630 000
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	1 055 000

Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025- yil uchun Angren shahri mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Angren shahri
	Xarajatlar miqdori, jami	**133 701 340**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*39 070 426*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 407 480*
2	Madaniyat bo‘limi	*3 149 751*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5 359 539*
4	Sport bo‘limi	*7 712 019*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 563 224*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*801 987*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 832 434*
9	Hokimyat	*38 518 994*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*309 508*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*46 200*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 962 940*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 094 087*
	Zaxira jamg‘armasi	*2 158 994*
10	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*932 419*
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*156 884*
	Axborot-kutubxona markazlari	*775 535*
11	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	33 760 547

Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Angren shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

T/R	Hududlar nomi			Angren shahri
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	6%
2	Foyda solig‘i	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
3	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
4	pivo	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
5	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	82%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	80%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	91%
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	shahar byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%

9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	shahar byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	shahar byudjetiga	MRI	0%
			DSB	100%
11	Aylanmadan soliq	shahar byudjetiga		100%
	Davlat boji	shahar byudjetiga		0%
12	Jarima	shahar byudjetiga		0%
	Yig‘imlar	shahar byudjetiga		0%

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffisiyent**	**Mutloq miqdor** *(so‘mda)*
1	Angren shahri	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha shahar kesimida 2025-yilga belgilangan koeffisiyentlari

T/r	shahar nomi	Koeffisiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’yektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlari
1	Angren shahri	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmaganyerlar bo‘yicha shahar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	**Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun** (ming so‘mda)	**Koeffitsient** (0,5 dan 2 gacha)	**Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun** (so‘mda)
1	“8-mart” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
2	“Abu Rayhon Beruniy” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
3	“Bobotog‘’ MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
4	“Bog‘i Surx” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
5	“Bo‘ston” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
6	“Geolog” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
7	“G‘ofur G‘ulom” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
8	“Grum” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
9	“Gulbog‘” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
10	“Gulzor” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
11	“Go‘zal” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
12	“Dorilfunun” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
13	“Do‘stlik” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
14	“Yoshlik” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
15	“Jigariston” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
16	“Zarbuloq” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
17	“Istiqbol” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60

18	“Istiqlol” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
19	“Karvon” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
20	“Yangi O‘zbekiston” (Qatog‘on) MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
21	“Kimyogar” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
22	“Qorabog‘” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
23	“Ko‘k terak” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
24	“Lashkerak” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
25	“Maydon” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
26	“Mustaqillik” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
27	“Navbahor” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
28	“Navro‘z” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
29	“Na‘muna” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
30	“Nishbosh” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
31	“Nurchi” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
32	“Obliq” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
33	“Obod” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
34	“Ozodlik” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
35	“Opportak” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
36	“Samarcho‘g‘” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
37	“Sog‘lom” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
38	“Taraqqiyot” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
39	“Mirzo Ulug‘bek” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
40	“Xakkarman Yangi Jigariston ” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
41	“Chinniobod” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
42	“Chotqol” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
43	“Yangi Bog‘i Surx” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
44	“Yangi Go‘shsoy” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60
45	“Yangi hayot” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60

46	“Yangiobod” MFY	1,60	6 512,00	1,60	585,60

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025-yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob mahsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
	Tavsiya etilgan stavka	**265-800**	**65-200**	**65-200**	**65-200**	**65-200**	**250,00**	**350,00**
1	Angren shahri	500,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	shahar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Angren shahri	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15

Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (syementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffisiyentlar*

ming so'mda

T/r	**shahar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(syement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Angren shahri	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	**shahar nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i,** ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	kofis-iyent	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	kofis-iyent	2025 -yil stavka
1	Angren shahri	5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-10-148-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yilda shahar byudjetida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so'm

№	Hududlar bo‘yicha jami	2025-yil
1	Angren shahri	663 144,0